

**O'ZBEK ADABIYOTI TARIXIDA SHE'RIY QISSACHILIK  
SHAMSIDDIN O'ZGANDIY SHE'RIY QISSASI TAHLILI**

*Kentayeva Gulmira Ismadiyarovna*

*Tashkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Shamsiddin O'zgandiyning she'riy qissasi "Ya'ni Hazrat Usmon Hazrat Muhammad sallolohu alayhi vassalam musulmon qilg'onlari" haqida ma'lumotlar keltirilgan. Manba yangiligi bilan ahamiyatlidir.

**Tayanch so'z va iboralar:** Turkiy adabiyot, she'riy qissachilik, islom tarixi, turkiy xalqlar, axloqiy didaktika.

Shamsiddin O'zgandiy she'riy qissasining o'ziga yarasha juda ko'plab bog'liqliklari bor. She'riy qissalar mazmun va mohiyatan payg'ambarimiz hayot yo'llari ularning oila a'zolari, xalifa, sahobalari hayotlari to'g'risida yoritiladi. Tarixiy voqealar badiiy tarzda adabiyotga kirib keladi. Har bir qissalar bizni ma'nан tarbiyalaydi. Ijodkorning ham she'riy qissalari islom dinidagi farz va sunnat amallar, yaxshilik va yomonlik, mehr-oqibat, qarindoshlik rishtalari, ota-onaga, farzandga muhabbat kabi insoniy tuyg'u va amallarni o'zida singdirgan. Payg'ambarimiz Muhammad s.a.v hayat tarzlari, tarixiy voqealar, ularning oila a'zolari, farzandlari, xalifalari, sahobalari haqidagi tarixiy haqiqatlar ushbu she'riy qissalarda badiiy tarzda yoritilgan. Buni tahliliy jarayonda ham ko'rish mumkin. Shamsiddin O'zgandiy she'riy qissasi tahlili misolida ko'rib tahlillarini amalga oshiramiz.

**Shamsiddin O'zgandiy she'riy qissasi "Ya'ni Hazrat Usmon Hazrat Muhammad sallolohu alayhi vassalam musulmon qilg'onlari"**

Kunlardan bir kun Mustafo ro'za soyim erdi,

Haq yo'lida jon berib kechani qoyim erdiyo.

Jamladilar har dari ikki jahon payg'ambari,

Uch Kunduz to'rt kunduz ber do'zah oxir erdi.

Ochlik yo'qlikka ham kofirlar toata qildilar,

Biz osiy ummatlar uchun ko'p ranj mehnat tortiyo.

Qiyin birla tuta ro'zasin hech kirmadi tun ustin,

Edi biz ummat qayg'usin doim ishni bo'l erdiyo.

Ul Xo'ja Siddiq safo ul har biri kon hayo,

Ber ranj niyos har do'jon bu nadog' mashaqat ko'rдиyo.

Tug'di onadin ul habib dardinga jo'n darmon tabib,

Qildi duo haqqa boqib ul dam namozin qildiyo.

Bir kun namozi tang o'qub ikki tizzasin yerga bukub,

Qilg'on duosi mutajob tangri habibim dediyo.

Qildi namozini tamom barcha sahoba xos a'vom,  
Ular xabardor o'shal dam mehrobda o'ltirdiyo.  
Masaldo'lom edik bo'lub o'rtalarinda sham bo'lub,  
O'zgalarini yulduz bo'lib tangri osiyda o'lturdiyo.  
Qildi nasihat ul zamon payg'ambari oxir zamon,  
Haq erdin qildi bayon ul dam hamma yig'lashtiyo.  
Foni turar ushbu jahon boqiy mastur jovidon,  
Toatsiz yurmanglar iyomon amri o'tkusidir dediyo.  
Ondin keyin qo'pti ravon osmon bilingiz ul zamon,  
Edi faxrni jahon arzim sanarga yod dediyo.  
Arzim budur biling ravon musulmon bo'lingiz bu zamon,  
Emdi bizning uyga bu kun musulmon bo'lingiz dediyo.  
Xo'sh deb anga berdi javob ul sarvari olami janob  
Bo'lg'usi ishning bosub xizmatda bo'lg'il dediyo.  
Usmon anga xush vaqt bo'lub, uyiga bordi yugurub,  
Xizmat qilay deb jon darhol uyiga bordiyo,  
Kelur bu kun sohibi jahon xizmatda bo'lg'ung dediyo.  
Qiling anga turluk taom sarf aylangiz bu xonumon,  
Bo'lsun tasduq jon anga xo'sh davlatimiz dediyo.  
Qo'btin suyunib dilafgor qildi muhosir sad hezor,  
Xizmat uchun bog'lab kamar hozir mahozir dediyo.  
Aydi rasul bo karam barcha sahoba ushbu dam,  
Ranjida qilsunlar qadam Usmon uyiga dediyo.  
Qo'btin rasul do' jahon misol bo'lub mohitabon,  
Barcha sahoba ul zamon yo'lg'a kirib xabar oldiyo.  
Uning yonida Bakr amr yonida so'ng ul shir noz,  
Orqalarida o'zgalar yashnab borurlar dediyo.  
Usmon uyiga ul zamon yeti o'shal fahri jahon,  
Uyga kiring dedi ravon ta'zim etibon turdiyo.  
Usmon xayo uldam ravon qo'pti yeridin ul zamon,  
Yubordi birovni ravon yo'lini qadam urar dediyo.  
Ul Mustafo shoh karam qilgan yo'lin urdi qadam,  
Qildi hisob to'rt yuz qadam qaytib bo'kirib bordiyo.  
Usmon yana surdi ravon fi oliy hol oshiqib ul zamon,  
Necha qadam chiqti ravon aytg'il manga deb aydiyo.  
Berdi javob ul bovafo to'rt yuz qadam chiqti safo,  
Amal xok moy Mustafo ko'z tutiyo dediyo.  
Usmon yana ochti gilam har bir qadamga bir g'ulom,  
Shukrona uchun xos a'vom ozod qilurman dediyo.

Hozir qilib andin davron to'rt yuz g'ulom shohjahon,  
    Hazrat qoshida shil zamon ta'zim etib keltirdiyo.  
Aydi rasul xos a'vom Usmon nedur ushbu g'ulom,  
    Nechuk g'ulomdur bu g'ulom oting bilayin dediyo.  
    Usmon dedi shoh karam kelgan yo'lingizni budam,  
    Joq urdilar to'rt yuz qadam chiqibti o'shal deb aydi.  
Aning uchun bu xos a'vom keldim olib to'rt yuz g'ulom,  
    Har bir qadamga bir g'ulom shukrona bo'lson dediyo.  
    Ushbu g'ulomlar jon fido qiling bu kun ozodsansizo,  
    Sanyering uchun o'lsam rizo har do'shfiyatim dediyo.  
    Aydi rasul Mustafo A'mom rizo Alloh rizo,  
Yuz ming savob ro'zi jo'z Usmon san yerga deb aydiyo.  
    Har kim suyar musulmoni oson olur haq jonini,  
    Ato qilg'ay iymonini joyatin olurda dediyo.  
    Usmon buyurdi xodmon kelturingiz dasturxon,  
    Torting taom turluk alvon hazrat yesunlar dediyo.  
    Ushbu zamon torti taom ulug' kichik har xos a'vom,  
    Qo'l qo'shurib masal g'ulom xizmatda turar erdiyo.  
    Qildi tanavvul xabib bir necha ta'ma ul sharif.  
    Ham o'g'zidin durlar sochib pand nasihat qildiyo,  
    Yeb bo'ldilar barcha taom omin dedilar xos a'vom.  
    Ta'zim qilib yor va foxush kelingizlar dediyo,  
    Andin keyin quchi ravon ul Mustafo shohjahon.  
    Yo'lg'a kirib mohitabon manzillarig'a bordiyo,  
    Emdi qilay satrga bayon ul Murtazo holing ayon.  
Oti ko'zdin to'kub yoshin ravon buldam fikrga qoldiyo,  
    Fikr uldam Mo'rtazo hazrat uchun shiri Xudo.  
    Qilsam anga jonim fido yo'q manda dunyo dediyo,  
    Bu dunyo ham darkor ekan sizdek kishilar xor ekan.  
    Dunyoyi bu qilar zor ekan sarvari korim dediyo,  
    Usmon kuyaman ham kuyayu qatur uyumda non jav.  
    Olmas kishi molg'a gar ushatsam qasam uzumni dediyo.  
    Boshin quya soldi ravon yoshin oquzdi ul zamon,  
    Bul Fotima ko'rdi ayon dedi ayon bo'ldiyo.  
    Ushbu faqiring har qiziyo bizga yetar shiri xudo,  
    Ko'pdur mangiz jonim fido bo'lson tasduq dediyo.  
    Surdi oshuqib dilafkor ul Fotima zahar angor,  
    Aylab anga jonin nochor bag'ri kuyub o'rtandi.  
    Boshin quyi soldi ravon yoshin oquzdi ul zamon,

Ey Fotima aylay bayon solg'il qulog'ing dediyo.  
Usmon otangizni chunon mehmon qilibon ul zamon,  
Torti taom turluk alvon hayron qolursiz dediyo.  
Bizlardan bo'lay dunyokash biz ham husuring non osh,  
Yo'qluq qiladur sirni fosh yori jonim dediyo.  
Kelsun rasul Mustafo bo'lsun anga jonim fido,  
Andin bo'lsun Alloh rizo qo'ysun qadam dediyo,  
Bordi bizni uyga bu kun mehmon bo'lingiz dediyo.  
Berdi javob ul Mustafo tangri habibi bo safo,  
Mone qiling koni safo bu ishni sanar deb aydiyo.  
Bizga ayondur holingiz yo'qtur ishingda molingiz,  
Iymanmasun bu joyingiz tortmang mashaqat dediyo.  
Ko'ngli buzildi Mo'rtazo bul so'zga ul shiriy xudo,  
Aydi sizning uyga bu kun mehmon bo'lingiz dediyo.  
Bizlar g'arib bechoramiz yo'qluq bila ovoramiz,  
Ko'ngli buzuq sad choramiz tangri habibi dediyo.  
Aydi jigarim porayi ikki ko'zumni qorasi,  
Haq qillarni sorayi ikki jahonda dediyo.  
Ta'zim etib anda davron quchti biridin ul zamon,  
Bul gavhari darragiron xizmat qilurman dediyo.  
Bo'lsa otam mehmon manga bo'lsun tasdiq jon anga,  
Hush davlat ehson manga kabam otamdur dediyo.  
Ul bar azon vaqt namoz bordur namozda ahliroz,  
Qaytib namozga keldiboz oshiqib uyga keldiyo.  
Kirdi Ali uyga ravon boqti bikbor ul zamon,  
Ko'rди o'tirmish guliston ul dam fikrga qoldiyo.  
Qaytib yana keldi ravon sajdaga bu shohjahon,  
Tez qaytibon keldi ravon o't yoqmasmusiz deb aydiyo.  
Ayting manga bu sirni fosh na sho'r dengiz na osh,  
Ko'zdin to'kar Fotima yosh olib kelingiz dediyo.  
O'qub nozin hovli jon keldi oshiqib ul zamon,  
Mardona shohjahon hazratni taklif qildiyo.  
Qo'pti rasul debon misol bo'lub mohitabon,  
Uch ming sahaba ul zamon birga bo'lunglar dediyo.  
Barcha sahaba ul zamon bir biriga aytib ravon,  
Ali uyida bu zamon hech nima yo'qtur dediyo.  
Qo'lida moli yo'qtur goh och o'tar goh to'qtur,  
Dil davlatin o'zga hech yo'qtur g'ayri moli dediyo.  
Valadil otini suviga nadur oni taom qilg'ondur,

Kana saho mard onduru Alloh a'lam dediyo.  
Valadil qo'shin yesa tamom chiqqon behishtdin xos a'vom,  
Do'zax o'ti bo'lg'ay haromsizlarg'a emdi dediyo.  
Jamla sahoba ul zamon bir birin aytib ravon,  
Yo'lg'a kirib mohitabon manzillarig'a bordiyo.  
Emdi qilay sizga bayon ul Fotimaholin ayon,  
Ko'zdin to'kub yoshin ravon sajdaga boshin qo'ydi,  
Haqqa yetkaz ikki ko'zin sajdaga boshin qo'ydiyo.  
Qo'ydi munojatga boshin oquzubon ko'zda yoshin,  
Qildi xudoga nolasin bergil murodim dediyo.  
Usmon tayandi moliga tangri qilib dunyosig'a,  
Man takiya qildim zotinga har dardgorim dediyo.  
Yetgil ilohim dodimga rahm aylagil faryodima,  
Sharmanda qilma otamga ey shohsivorim dediyo.  
Oshal mahal erdi janob qildi vafosin mustajob,  
Kirdi Ali uyga shitob Fotima holing ko'rдиyo.  
Boqtı Ali uyga ravon ko'rdiki bir dasturi jon,  
Turdi turubdur ul zamon ul damda shodmon bo'lдиyo.  
Aydi Ali ey mehribon yerdin ko'tar boshing ravon,  
Bermish murodingni uyg'on turing nigorim dediyo.  
Qildi xabar shiri xudo kirdi rasul Mustafo,  
Qildi salom mohitabon ta'zim etibon turdiyo.  
Dedi Alikim Islom Fotimaga shirin kalom,  
O'turdilar shoh karam ey Fotimajon dediyo.  
Ul Fotima shohijahon kelturdi bir dasturi jon,  
Hazrat qoshig'a shulzamon ta'zim aytib keltirdiyo.  
Aydi rasul xos a'vom ey Fotima ozdur taom,  
Bu xamlaga yetmas tamom ko'pdur haloyiq dediyo.  
Fotima aydi ul zamon sizdin eshitib man ayon,  
Emdi qilay sizga bayon jonom bobom deb aydiyo.  
Siz o'zingiz emdi bobom hassa qiling ushbu taom,  
Barcha yesunlar xos a'vom mushtoq o'turmish dediyo.  
Uldam rasul do' jahon ochti gar bir dasturi jon,  
Ko'rди taomlar rang barang ul Mustafo otang qildiyo,  
Torti taom turluk alvon ul dam muborak qo'l bilan,  
Yedi hamma maqsabad bilan hargiz tugamas erdiyo.  
Fotima bilan Ali ul Murtazo ofarin yana,  
Qoldi taom ortib yana xush vaqt bo'lubon qoldiyo.  
Ul dam rasul do' jahon boqtı bikbor ul zamon,

Kelib xabar ol ravon xizmatda bo'lub turdiyo.  
Aydi gar Jabroil omin tingla so'zumni hokdin,  
Aytay sanga tangri so'zin haqning habibi dediyo.  
Ushbu taom turluk taom u xamoh taomdur mudom,  
Keldim olib sizga siyom jabbor egamdin dediyo.  
Usmon qilib xizmat yana tortib taom turluk hezor,  
Har bir qadamg'a g'ulom ozod qilmas dediyo.  
Aydi o'shal har dardga har bir qadamga sad hezor,  
Qildim habibimga nisor ummatlardin dediyo.  
Yuz ming kana korbandani osiy jonni sharmandani,  
Fotima uchun hammani shukrona qildim dediyo.  
Ul dam rasul do' jahon iligin ochib qildi duo,  
Mavlosig'a hamma sano shukronalar ko'p qildim,  
Qodir Xudoni qudratin qilg'il tamoshko san'atin,  
Hech kimga bo'sh hikmatin olimg'a ro'sh qildiyo.  
Suyganini ehson qilur suymaganni rasvo qilur,  
Nomard o'tin bo'ston qilur har kimni Alloh suydiyo.  
Ba'zini qildi dunyodor ba'zi qildi xor zor,  
Ba'zini qildi e'tibor bazini harob qildiyo.  
Tavba qilinglar musulmon bo'ldi bovaq oxir zamon,  
Boshti qarong'uluq jahon turluk alomat bo'ldiyo.  
Yo rab haq Mustafo qilg'il kechurgil har xato,  
Ham aylagil iymon ato barcha qulinga dediyo.  
Borib meningdek bandani rahm aylagil sharmandani,  
Shams g'arib bechorani qil marhamat dediyo.

Shu payt rasuli Mustafo duo qiladi: “ Bu yerdagi turli taomlar shukronalik uchun qilindi. Qodir Allohnинг qudrati ko'ringlar, bizga bir hikmat berdi. Allohim suyganiga ehson qilur, suymaganni rasvo qilur, ba'zini dunyodor qiladi, ba'zini xarob qiladi. Musulmonlar oxir zamon bo'lmay turib, tavba qilinglar. Hazrat Usmon haq Mustafo kechirgin meni xatoyimni, o'zing rahm ayla Allohim deya kechirim so'raydi”. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ushbu she'riy qissada dunyoviy mol mulkka ishonmaslik, kibrdan saqlanish va Allohnинг marhamatidan umidvor bo'lishni eslatadi. Hazrat Usmonning qilgan ishidan pushaymonligi haqiqiy musulmon bo'lganligi tasviri badiiy tasvirlar orqali bizga ko'rsatib berilgan.

**Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Haqqul Ibrohim. Tasavvuf va she'riyat. – T.: Adabiyot san'at nashiriyoti, 1991. -184 b.
2. Javohirul hikoyat. Ibratli hikoyatlar, pandlar, o'g'itlar (so'z boshi. Saidbek Hasan). –T.: Yozuvchi, 1993. -112 b.
3. Ibratnoma. Inv. N 822572, qo'lyozma, shikastda xatida.
4. Muallifi na'malum qo'lyozma